

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TALIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQIY TALIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH 208-GURIH TALABASINING PEDAGOGIKA FANIDAN
TAYYORLAGAN



M U S T A Q I L *I S H I*

TOPSHIRDI;
QABUL QILDI;

RAXIMOVA D
ERGASHEVA O

MAVZU; Didaktika - ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi

REJA;

1 Didaktika xaqida tushuncha

2 Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari

Didaktika - pedagogikaning mustaqil tarmog'i. Unda ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullaniladi. Didaktika pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismdir. Didaktika - yunoncha so'z bo'lib, «didasko» - o'qitish, «didaskol» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. «Didaktika»ning so'zma-so'z tarjimasi ta'lim nazariyasini anglatadi. Bu atamani nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) ilmiy iste'molga

kiritgan. «Didaktika» nomi ostida nazariy va metodologik asoslarni tadqiq qiladigan ilmiy fan tushuniladi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya. A. Komenskiy (1592-1670) tomonidan

ishlab chiqilgan. U 1657-yilda chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «Hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati», deb baholadi. Didaktika fanining mohiyatini ishlab chiqishda G.Pestalotssi, I.Gerbart, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Hamza, Oqilxon Sharofiddinov va Qumri Abdullayevalar katta hissa qo'shdilar.Umumiy didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlarga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari.

o'qitish jarayonining mohiyati. ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi. O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan biish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik harnda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi. Didaktika va metodika mustahkam aloqada hamda o'zaro bog'liqdir. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi. Xususiy didaktika - muayyan o'quv fanlarini o'qitishning

qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tadbiq etilgan didaktik qonuniyatlari, o'sha predmetning umumiy jihatlari qonunlashtiradi va ularda o'qitishning universal jihatlari namoyon bo'ladi. Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Ta'lim jarayoni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlari, odamlar faoliyati va hayotiy ehtiyojlari, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining yutuqlariga hamma ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlariga qo'yilgan katta talablarga asoslanadi. Didaktika sohasidagi natijalar uning oldiga yangi-yangi masalalarni ko'ndalang qo'yadi. Bu muammolarni hal qilish boshqa fan

yutuqlaridan maksimal darajada samarali foydalanishni talab etadi. Falsafa va sotsiologiya jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliyatining ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishda didaktikaga yordam beradi. Siyosatshunoslik ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi. Etnologiya didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, qaysiki ta'limda milliy tajribalar o'ziga xos xususiyatga ega. Pedagogikpsixologiya ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi. Odam fiziologiyasi ta'lim jarayonida odam tana tuziishi va nerv tizimining ishlash qonuniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning roli, ahamiyati va o'ziga

xos vazifalarni ko'rsatishga yordam beradi. Xususiyl metodika alohida predmetlarni o'qitishda ta'limning turli shakl va vositalarini qo'llashning o'ziga xosliklarini aniq hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari

Didaktikaning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiyl bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviyl, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmogi lozim. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta'lim oluvchilarda dunyoqarash va axloql me'yorlarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish

faolligini oshiradi. O 'qituvchining faoliyati ta'lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o 'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta'lim oluvchilarga qiyinchiliklar ni yengib o 'tishda yordam beradi hamda uiarning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O 'z navbatida, ta'lim oluvchilarning faoliyati o 'quv jarayonida o 'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalavdi va bu harakat bilishga doir vazi-falarni hal qilishda ularga katta yordam beradi. Didaktikaning asosiy tushunchalariga ta'lim, jarayoni, ta'lim tamoyillari, ta'lim metodlari, ta'lim

shakllari, ta'lim vositalari, bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish, o'qish va shu kabilar kiradi. Ta'lim - ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda ma'akalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi. Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) vazifasi ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuning bilan birga oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumot berish vazifasini bajaradi. Ta'lim berish- ta'lim oluvchining intellektuai salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish - o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturi - o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati. Ta'lim maqsadi - har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarning ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi. Raqobatbardoshlik har bir pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan aytganda, o'z vazifalarini ijtimoiy

ehtiyojlariga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi. Bunday maqsadlarning yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi. Ta'lim mazmuni - insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakterini tashkil etadi. Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi hamda unga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilanib borish imkoniyatlari nazarda tutiishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va shu kabilar aniqlanadi. Ta'lim menejmenti va marketingi - bu pedagogik texnologiya ning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talablarga

muvofiqligini aniqlagan holda uni loyihalash, ishlab chiqarish, amaliyotga tadbiq qilish masalalarini hal qiluvchi soha. Ta'lim menejmenti va marketingida tegishli dolzarb yo'nalishlar aniqlanib, mutaxassislar tayyorlash uchun takliflar tayyorlaydi, tegishli tartibda biznes-rejalari tuzish va ularni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bunday muammolar yechimlarini izlashning optimal variantini topish uchun ta'lim menejmenti va marketingi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega hamda tajribali mutaxassislar jalb etiladi.' Ta'lim metodi - bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir. Ta'lim metodi o'qituvchi bilan talabalarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish usullarini hamda o'quv

materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi. Ta'lim monitoringi - pedagogik tizim faoliyati haqida axborotlar yig'ishni tashkil etish, saqlash, qayta ishlash va ularni sinflarga ajratish tizimidan iborat bo'lib, kuzatib o'tilayotgan obyekt holatini va kelgusida uning rivojlanishi dinamikasini oldindan bashorat qilish jarayoni. U ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ma'lumotlar yig'ish texnologiyasi, ta'lim natijalari darajasini taqqoslash uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar majmuasini tayyorlashni amalga oshirishga imkon yaratadi. Ta'lim monitoringi pedagogik tizim faoliyatidan olingan daliliy-xulosaviy natijalarni uning maqsadiga mosligini ko'rsatuvchi, tezkor aloqani ta'minlovchi, mustaqil boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirishning didaktik asosi hamdir. Ta'lim sifati - bu ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv muassasasi

tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi. Sifat kategoriyasi insonning obyektiv reallikni bilishdagi ma'lum bosqichini ifodalaydi. Bilish jarayonining dastlabki bosqichida obyekt subyekt oldida o'zining ayrim yoki bir necha xossasi bilan namoyon bo'ladi. Bevosita hissiy idrokda sifat ko'plab xossalarning majmuyi tarzida ko'rinish beradi. Talab etilgan darajadagi ta'lim sifatiga ma'lum ijtimoiy-pedagogik tizim orqali erishish mumkin. Bu tizim quyidagi qism tizimlardan tashkil topadi: DTS; bo'Majak mutaxassislarning me'yoriy modeli; ta'lim sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda monitoringi. Maxsus ma'noda «Ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi» darajasi ta'lim sifati - bu muntazam ravishdagi o'lchamlar asosida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatini, ta'lim

oluvchilar faoliyati, ta'lim natijalarining ta'lim tarbiyasiga mosligini belgilovchi darajadir. Umumiy ma'noda «Ta'lim oluvchi <ta'lim muassasasi» darajasida ta'lim sifati - bu tizimli va kvalimetrik ko'rinishlarda muntazam o'lchamlar asosida aniqlanadigan ta'lim-tarbiya natijalarining moslik darajasidir. Ta'lim Standard - bu standart tekshirish usullariga muvofiq keladigan va o'qitish sifatining standart ko'rsatkichlari bilan ifodalangan mazkur ta'lim turida ta'lim oluvchini o'qitish va tarbiyalashda qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining mazmuni. Ta'lim tamoyillari - bu o'qituvchining faoliyatini va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir. Ta'lim tamoyillari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi.

Shuning uchun ta'lim tamoyillari ta'lim berishning ma'lum obyektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Didaktik tamoyillar- bu ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmunj va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir. Shuning uchun ham o'qituvchinmg pedagogik mahorati va ta'lim oluvchining o'rganuvchanlik faoliyatini bir qolipga solib, belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar majmuasi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi. Didaktik tamoyillar nazariy va amaliy ta'limida maqsad, mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari, o'qitish vositalari va usullari; mehnatva tarbiyaviy faoliyat; ta'limning turli bosqichlari hamda pedagogik va mehnat jarayonlari; ta'lim oluvchilarning jamoaviy rivojlanishi va har birining alohida rivojlanishi o'rtasidagi aloqadorliklarni aks etiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda yurtimizda talim tizimiga katta etibor qaratilmoqda. Talim jarayonida Ta'lim mazmuni avval DTS, so'ngra o'quv reja va dasturi shaklida loyihalashtiriladi. Xozirgi kunda darsliklarni kitob xolati nafaqat elektiron shakilda xam olish imkoni mavjud. Elektron ta 'lim resurslari - bu muayyan fan bo'yicha yaratilgan elektron o'quv qo'llanma, elektron ko'rsatmalar, elektron ma'lumotnomalar, lug'atlar, virtual stendlar, multimediali vositalar va boshqa elektron nashrlar majmuasidir. Elektiron darsliklar ko'plab talablar qo'yiladi masalan; zichma-zich joylashgan turli bo'g'inlar va rangli bezaklarda gipermurojaatlardan foydalanish. Ma'lumotlarni tasvirlashda turli xil rangli bezaklardan foydalanish. Audio va video effektlar va ularni boshqarishning samarali fnetodlaridan foydalanish Multimedia muhitida elektron o 'quv qo'llanmalar ishlab chiqish uzoq muddatli va katta mablag'larni talab qiluvchi jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTL

**J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov,I.Sh. Alqarov ,N.O '.Usmanov
PEDAGOGIKA «NOSHIR» TOSHKENT 2011**

**Bo'ri ziyomuxammadov Pedagogik Mahorat Asoslari
Toshkent «T1B-K1TOB» 2009.**

**Mavlonova Raxima, To'rayeva Oysha, Xoliqberdiyev
Karim,
PEDAGOGIKA Toshkent «O'qituvchi» 2001.**

**PEDAGOGIKA TARIXI (darslik)
Mualliflar;K.XOshimov, S.Nishonova Toshkent -2005.**